

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.I.157.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

TURG'UNOV JASURBEK ALIMARDON O'G'LI

**SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHINING ATROF-MUHITGA
TA'SIRINI BAHOLASH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Turg‘unov Jasurbek Alimardon o‘g‘li

Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholash 3

Тургунов Жасурбек Алимардон углы

Оценка воздействия развития промышленных предприятий на
окружающую среду..... 25

Turgunov Jasurbek Alimardon ugli

Assessment of the environmental impact of industrial enterprises
development..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.I.157.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

TURG'UNOV JASURBEK ALIMARDON O'G'LI

**SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHINING ATROF-MUHITGA
TA'SIRINI BAHOLASH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.4.PhD/Iqt3189 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Xalqaro Nordik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nordicuniversity.org) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'ulomov Saidaxror Saidaxmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Murtozayev Olimjon
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Xalqaro Nordik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "8" "11" kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100077, Toshkent shahri, Chust ko'chasi, 17-uy, 3-bino 1-qavat. Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00; e-mail: info@nordicuniversity.org.

Dissertatsiya ishi bilan Xalqaro Nordik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100077, Toshkent shahri, Chust ko'chasi, 17-uy, 3-bino 8-qavat. Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "27" "10" kuni tarqatildi.

(2025-yil "27" "10" dagi № 11 raqamli reestr bayonnomasi).



A.R. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, i.f.d., (DSe)

[Signature]

M.K. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, professor

[Signature]

B.T. Salimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiy tizimida sanoat korxonalari faoliyatining atrof-muxitga ta'sirini baholash masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. "2020-yilda jahonda 2,24 milliard tonna qattiq chiqindi hosil bo'lib, ularning faqat 17 foizi qayta ishlangan. 2050-yilga borib, aholining o'sishi va urbanizatsiya jarayonlari natijasida bu ko'rsatkich 73 foizga ortib, 3,88 milliard tonnaga yetishi prognoz qilinmoqda"¹. Bunday holat sanoat faoliyatida chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish, energiya sarfini optimallashtirish va uglerod izini qisqartirish bo'yicha samarali strategiyalarni joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlar ekologik monitoring tizimlaridan foydalanish va qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga intilmoqda. Shu tariqa, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli ravishda kuchaytirilmoqda.

Jahonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishda sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning ilmiy-amaliy jihatlarini ochib berish, sanoat korxonalari rivojlanishi va atrof-muhit o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik jihatdan tahlil etish, aylanma iqtisodiyot modellaridan keng foydalanish, yashil iqtisodiyot konsepsiyasini sanoat korxonlari faoliyatiga joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ESG tizimlarini keng joriy etish, yirik sanoat subyektlari tomonidan o'z faoliyatining ekologik ta'sirini doimiy monitoring qilish va hisobot topshirish tizimini kuchaytirish, shuningdek, sanoat va ekologik xavfsizlik, sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning innovatsion usullaridan foydalanish hamda sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash mexanizmini takomillashtirish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanmoqda.

O'zbekistonda sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash hamda kamaytirish, ularni yashil texnologiyalar orqali ishlab chiqarishni tashkil etishini ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da sanoat obyektlarida chang-gaz tozalash uskunalarini modernizatsiya qilish va yangilarini o'rnatish, bunda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z mablag'lari hisobidan 145ta sanoat korxonalarida 714ta chang-gaz tozalash uskunalarini yangilash va modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Shuningdek, sanoat chiqindilarini qayta ishlash hisobiga ikkilamchi resurslarni imkon qadar ko'proq xo'jalik aylanmasiga jalb qilish, ulardan bozorbop yangi raqobatbardosh, sifatli va ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda qayta tiklanmaydigan manbalardagi tabiiy xomashyo tejalishi mumkinligi qayd etilgan². Shu sababli, sanoat korxonalarining ekologik barqarorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, havoni ifloslantiruvchi omillarni aniqlash, yashil texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash hamda sanoat korxonalarining ekologik samaradorligini tahlil qilish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ www.worldbank.org – Jahon bankining rasmiy veb-sayti ma'lumoti.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni takomillashtirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta‘sirini baholash bo‘yicha xorijlik iqtisodchi-olimlar Beder Sh., Cantarello, E., Calabretta G., Milstein M., Shannon W., Solheim E., Patricia Espinosa., Nils Stieglitz., Scott M., Fuecks F., Cameron A., va Clouth S., Patrick ten Brink., Chalons-Browne R., Dirk Jaeger³ tomonidan sanoat faoliyatining ekologik ta‘sirini baholash va monitoring qilish usullari, sanoat strategiyalari va ularning atrof-muhitga ta‘sirini o‘rganish, yashil iqtisodiyot va ekologik modernizatsiya konsepsiyalari, barqaror rivojlanish strategiyalari va ekologik boshqaruv tizimlari tadqiq etilgan.

Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta‘sirini baholash nazariyalari hamda atrof-muhitning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sirini baholash va rejalashtirish, kutilayotgan ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni aniqlash hamda atrof muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha MDH olimlari S.Bekulova, O.Bogacheva, T.Zaxarova, B.Porfiriev, V.Pchelintsev, T.Kruglikova, I.Jivotovskaya, T.Chernomorova, A.Tkachenko⁴ va boshqalar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

³ Beder Sh, ‘Economy and environment: competitors or partners?’, Pacific Ecologist 3, Spring 2002, pp. 50-56. Adrian C. Newton, Elena Cantarello, An Introduction to the Green Economy, Science, Systems and Sustainability, 1st Edition, Pages 90 B/W Illustrations, Published August 5, 2014 by Routledge // Calabretta, G., De Lille, C., & Beck, C. A. (2016). Bridging sustainable business model innovation and user-driven innovation: A process for sustainable value proposition design. Journal of Cleaner Production, 135, 789–803. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2016.06.032> // Milstein, M., Hart. S., (2003). Creating sustainable value. Academy of Management Executive, 17(2), 56–67. <https://doi.org/10.5465/ame.2003.10025194> // William Hynes, Shannon Wang. Green Growth and Developing Countries, A Summary for Policy Makers, June 2012 / Nils Stieglitz, Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF, 2018. Global Trends in Renewable Energy Investment 2018, <http://www.fs-unep-centre.org> // Molly Scott Cato, Green Economics, An Introduction to Theory, Policy and Practice, First published by Earthscan in the UK and USA in 2009 / Fuecks F., Green Growth, Smart Growth- A new Approach to Economics, Environment & Innovation, 29. August 2016 // Cameron A., A guidebook to the Green Economy, Division for Sustainable Development, UNDESA, August 2012 // Patrick ten Brink, The Economics of Ecosystems and Biodiversity in National and International Policy Making, February 2011. // Chalons-Browne R, Green Financing: More than a Trend, July 20, 2011 // Dirk Jaeger, Water and the Green Economy capacity Development Aspects, UNW-DPC, Bonn, Germany, May 2012.

⁴ Bekulova, S. R. (n.d.). Contributions to green finance policy in Kazakhstan. Unpublished manuscript/Working paper. // Bogacheva, O.V. (2021). Challenges to green finance in G20 countries. MEiMO, 65(6), 89–99. Retrieved from <https://www.imemo.ru/en/publications/periodical/meimo/archive> // Захарова Т., «Зеленая» экономика как новый курс развития: глобальный и региональный аспекты. Вестник Томского государственного университета, №4(16), 2011 // Boris Porfiryev, Climate Change and Economy, July, 2010 // Valentin Pchelintsev, Tatyana Kruglikova, Irina Jivotovskaya, Tatyana Chernomorova “Зеленая экономика” как глобальная стратегия

O'zbekistonda sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning zamonaviy tendensiyalari, barqaror rivojlanish maqsadlari asosida sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning innovatsion usullari, sanoat va ekologik xavfsizlik, sanoat korxonalarini investitsiyalar orqali innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish masalalari o'zbek iqtisodchi olimlari Sh.Mustafakulov, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, A.To'raboyev, O.Ahmedov, I.Xatamov, A. Ortiqov, A.Yadgarov, M.Sultanov, R.Mardanova, A.Avliyaqulov, Z.Qurbanov, G.To'xtasinova, E.Umarov, N.Karimov⁵lar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, yuqoridagi ilmiy-tadqiqotlarda sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Tadqiqot ishida sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash asosida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatini oshirish, sanoat va ekologiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va baholash, xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish xususiyatlari va yashil iqtisodiyot jarayonlari e'tiborga olingan bo'lib, bu esa tadqiqot mavzusining ahamiyati, maqsadi, vazifasi hamda unda hal etiladigan masalalar doirasini belgilashga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Xalqaro Nordik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-3 «Sanoatning «drayver» sohaslarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini takomillashtirish» mavzusidagi fundamental loyihasi (2023-2026-y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarining atrof-muhit hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini baholashga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish bo'yicha xalqaro kelishuvlarning umumiy tendensiyalarini tadqiq etish;

развития в посткризисном мире. / Tkachenko Aleksandr Aleksandrovich, «Зеленая» экономика и ее будущее, "Экономика. Налоги" журнал. №6. 2015

⁵ Sh.Mustafakulov Impact of globalisation on economic growth and investment attractiveness of regions. Nordic_Press, 1(0001). // Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik –T. "Universitet" 2020y. // To'raboyev, A. (2020). Resurs tejovchi texnologiyalar va ularning ekologiyaga ta'siri, Tashkent: Universitet nashriyoti. // Ahmedov, O. M. (2017). Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik iqtisodiyot, Tashkent: Ekosan. // Xatamov, I., Madraximova G., (2022). Sanoat iqtisodiyoti,darslik, Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, Toshkent, 2022. // Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2014. 304b // Yadgarov, A., Kasimov A., (2022). Sanoat iqtisodiyoti va startegiyasi, o'quv-qo'llanma, Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, Toshkent, 2022 // M. Sultanov, A. Yadgarov. Atrof — muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti. «Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi», 2021. 312 bet.// Mardanova R., Scientific and practical analysis of the development of industries and sectors in the era of digital economy, том 1 № 0001 (2024): Scientific materials of Nordic // Avliyaqulov A., "Иктисодий ўсиш" дарслик, Термиз Давлат Университети, 2009 йил // Qurbanov Z., "Иктисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналы, №1, январ-феврал, 2017 йил // To'xtasinova, G. R. (2021). O'zbekiston sanoat korxonalarining ekologik xavfsizligi va baholash mexanizmlari Environmental safety and assessment mechanisms of industrial enterprises in Uzbekistan Tashkent: Fan va Texnologiya // E.Umarov., The content of the methodology for assessing the environmental and economic efficiency of industrial enterprises. World Economics & Finance Bulletin (WEFB). ISSN: 2749-3628, Vol. 39, October, 2024. // Karimov, B. I. (2020). Atrof muhitga ta'sirni baholash tizimining takomillashuvi Tashkent: Iqtisodiyot Press.

sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning ilmiy-amaliy jihatlarini ochib berish;

sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish;

sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash mezonlarining ilmiy-uslubiy jihatlarini ochib berish;

sanoat korxonalari rivojlanishi va atrof-muhit o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik tahlil qilish;

sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning hududiy indikatorlarini ishlab chiqish;

barqaror rivojlanish maqsadlari asosida sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning innovatsion usullaridan foydalanish;

yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash mexanizmini takomillashtirish istiqbollarini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona vodiysida joylashgan sanoat korxonalari va atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tashkilotlar faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash mexanizmlarini takomillashtirishda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, analiz, sintez, qiyosiy va iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-matematik, ekonometrik tahlil, statistik guruhlash, SWOT hamda ilmiy umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

faoliyatida yashil texnologiyalarni joriy etgan sanoat korxonalariga nisbatan kompensatsiya to'lovlarini qisqartirish yoki qaytarish orqali iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmi respublika budjetiga yo'naltiriladigan kompensatsiya to'lovlarining 50 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish tartibini qo'llash orqali takomillashtirilgan;

sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash strategik rejalashtirish hujjatlari asosida amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyatining ehtimoliy ekologik oqibatlarini aniqlashga qaratilgan "strategik-ekologik baholash" tartibini joriy etish asosida takomillashtirilgan;

O'zbekiston sharoitida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlariga sirkulyar iqtisodiyotning "tarmoqlararo foydalanishga yo'naltirish" va "ikkilamchi resurs sifatida tahlil qilish" tamoyillarini mahalliy resurslar va ishlab chiqarish sharoitiga moslashtirish asosida "atrof-muhitga ta'sirni baholash" ($EIA = 0,5 - 0,75$), "hayot tsiklini baholash" ($LCA = 0,24 - 0,33$) va "integratsiyalashgan baholash" ($IAMs = 0,71 - 0,92$) ko'rsatkichlarining miqdoriy chegaralari asoslangan;

hududlar va tarmoqlar uchun investitsiya va tenderlarda ustunlik berishga asoslangan "ekologik reyting" hamda korxonaning ichki samaradorligi va xarajatlarini optimallashtirish imkonini beruvchi "ekologik pasport" ishlab chiqish va jamoatchilikka taqdim etish amaliyotini joriy etish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringi stansiyalarini o'rnatgan sanoat korxonalarining ekologik ishlab chiqarishga o'tishidagi harakatlarini rag'batlantirish maqsadida ularning tabiatga zarar yetkazish bo'yicha kompensatsiya to'lovlaridan shakllangan qarzдорlikdan voz kechish hamda respublika budjetiga yo'naltiriladigan

kompensatsiya to'lovlarini qaytarish, chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalari o'rnatgan sanoat korxonalarining kompensatsiya to'lovlarini qaytarish tartibi joriy etilgan;

sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini baholash maqsadida ishlab chiqarishga sirkulyar iqtisodiyotni ("7R" - Rethink, Refuse, Reduce, Reuse, Repair, Regift, Recycle) joriy qilishda "Environmental impact assesment" "Life cycle assesment, "Integrated assesment methods" modellarini qo'llash orqali atrof-muhitga ta'sirni baholash metodologiyasini takomillashtirish orqali sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish ("7R") tamoyilining amaliyotga keng joriy etilishiga erishilgan;

strategik rejalashtirish hujjatlari asosida mo'ljallanilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyatining hamda boshqa faoliyatning atrof-muhitga ta'siri xususiyatlari va darajasini, ehtimoliy ekologik oqibatlarini aniqlashga, shuningdek baholash natijalari bo'yicha atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha taqdim etgan taklifi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 24-fevraldagi O'RQ-1036-sonli "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan;

korporativ ijtimoiy mas'uliyat, atrof-muhit hisoboti shaffofligini oshirish, chiqindilarni boshqarish bo'yicha samarali amaliyotlarni joriy etish, taksonomik ko'rsatkichlarni hisoblash, iqtisodiy va matematik modellashtirishdan foydalanishni o'z ichiga olgan ekologik javobgarlikni baholash orqali hudud va tarmoqlarning "ekologik reytingi" hamda "ekologik pasporti"ni ishlab chiqish orqali hududlarning ekologik reytingini ishlab chiqish (atmosfera ta'siri, zararli suv tashlanmalari miqdori, zararli chiqindilar hajmi, aholi salomatligining yomonlashuvi indikatorlari asosida) va jamoatchilikka taqdim etish amaliyotini joriy etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning ishonchli manbalardan olinganligi, modellashtirish va prognozlash yordamida olingan natijalarning ishonchliligi ularning turli statistik mezonlar yordamida baholanganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining ishonchliligi esa, respublikada sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-metodologik taklif va tavsiyalar innovatsion salohiyatni sanoat korxonalarida takomillashtirish, zararli chiqindilarni atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish orqali ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash mexanizmlarini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakatimizda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining ekologik jihatlari, sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish, sanoat korxonalarida yashil ishlab chiqarishni, jumladan aylanma iqtisodiyot modellarini takomillashtirish hamda sanoatning yashil texnologiyalarni qo'llash orqali samaradorligini oshirish, sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirishga oid kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek, "Sanoat iqtisodiyoti", "Innovatsion

iqtisodiyot”, “Yashil iqtisodiyoti” va “Makroiqtisodiy tahlil” fanlari bo'yicha darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

faoliyatida yashil texnologiyalarni joriy etgan sanoat korxonalariga nisbatan kompensatsiya to'lovlarini qisqartirish yoki qaytarish orqali iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmi respublika budjetiga yo'naltiriladigan kompensatsiya to'lovlarining 50 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish tartibini qo'llash taklifi “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 21-apreldagi 03-03/1-03/3-3802-son ma'lumotnomasi). Natijada korxonalarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va respublika budjetiga yo'naltiriladigan kompensatsiya to'lovlarining 50 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish tartibining joriy etilishiga xizmat qilgan;

sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash strategik rejalashtirish hujjatlari asosida amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyatining ehtimoliy ekologik oqibatlarini aniqlashga qaratilgan “strategik-ekologik baholash” tartibini joriy etish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 24-fevraldagi O'RQ-1036-sonli “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 21-apreldagi 03-03/1-03/3-3802-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning qo'llanilish natijasida kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning samarali va zamonaviy usullari jumladan, ESG mezonlarini sanoat korxonalariga qo'llash imkoniyatlari asoslangan;

O'zbekiston sharoitida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlariga sirkulyar iqtisodiyotning “tarmoqlararo foydalanishga yo'naltirish” va “ikkilamchi resurs sifatida tahlil qilish” tamoyillarini mahalliy resurslar va ishlab chiqarish sharoitiga moslashtirish asosida “atrof-muhitga ta'sirni baholash” ($EIA = 0,5 - 0,75$), “hayot tsiklini baholash” ($LCA = 0,24 - 0,33$) va “integratsiyalashgan baholash” ($IAMs = 0,71 - 0,92$) ko'rsatkichlarining miqdoriy chegaralarini asoslash bo'yicha bergan taklifi “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi loyihasining 19-bandi b-qismida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 21-apreldagi 03-03/1-03/3-3802-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning qo'llanilish natijasida sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish (“7R”) tamoyilining amaliyotga keng joriy etilishiga erishilgan;

hududlar va tarmoqlar uchun investitsiya va tenderlarda ustunlik berishga asoslangan “ekologik reyting” hamda korxonaning ichki samaradorligi va xarajatlarini optimallashtirish imkonini beruvchi “ekologik pasport” ishlab chiqish va jamoatchilikka taqdim qilish amaliyotini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 21-apreldagi 03-03/1-03/3-3802-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-

muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi loyihasining 23 bandida foydalanilib, natijada hududlarning ekologik reytingini ishlab chiqish (atmosfera ta’siri, zararli suv tashlanmalari miqdori, zararli chiqindilar hajmi, aholi salomatligining yomonlashuvi indikatorlari asosida) va jamoatchilikka taqdim etish amaliyotini joriy etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, milliy jurnallarda 10 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda 3 ta maqola va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda 2 ta tezis nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

“Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholashning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirining ta’sirini kamaytirish bo‘yicha xalqaro kelishuvlarning mohiyati va umumiy tendensiyalari, atrof-muhitga ta’sirini baholash mexanizmi, ilmiy qarashlar va yondashuvlar tahlili, sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholashning ilg‘or xorijiy tajribasini o‘rganib, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

2024-yilda global issiqxona gazlari emissiyasi avvalgi yiliga nisbatan ikki foizga oshib, yangi rekord darajadagi 37.8 milliard metrik tonna karbonat angidrid ekvivalentiga yetdi. Bu 1990-yildan buyon issiqxona gazlari emissiyasining 60 foiz miqdorida oshganligini ko‘rsatadi. Zaharli gazlar emissiyasining doimiy oshishi global iqlim o‘zgarishlari va atrof-muhit barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda (1-rasm).



1-rasm. Energiyani yoqish va sanoat jarayonlari natijasida global CO₂ emissiyasi va ularning yillik o‘zgarishi (1900-2023)⁶.

⁶ www.iea.org - Xalqaro Energetika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumoti.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda YaIM o'sishi davom etgan bo'lsa-da, CO₂ emissiyalari 2007-yilda eng yuqori nuqtaga yetgan. AQSHda 1990-yildan beri YaIM ikki baravar oshgan bo'lsa, CO₂ emissiyalari o'sha davrdagi darajada o'zgarishsiz qolgan. Yevropa Ittifoqida YaIM 2024-yilda bazis davriga nisbatan 66 % ga oshgan, CO₂ emissiyalari esa 1990-yilga nisbatan 30 %ga kamaygan. Shu kabi tendensiyalar boshqa rivojlangan iqtisodiyotlarda ham kuzatilmoqda. Sanoat tarmoqlari bir qator tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, u atrof-muhitga turlicha ta'sir o'tkazadi. Sanoat tarmoqlarining aksariyati bevosita yoki bilvosita tarzda ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sanoat faoliyatining ekologik izi juda katta va ko'p qirrali. Issiqxona gazlari emissiyasi global isishga hissa qo'shadi, zaharli moddalar esa ekotizimlar va inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

Sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga ta'siri⁷.

Sanoat tarmog'i	Ta'siri
Qurilish sanoati	Karbonat angidrid, metan va boshqa chiqindilarni chiqishi, havoni ifloslantiradigan va unga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan mahsulotlar global iqlimni o'zgarishiga olib keladi.
Elektrotexnika sanoati	Ko'p miqdorda xavfli maishiy chiqindilarni yer yuzasida qolib ketishi bilan izohlanadi. Agar bu buyumlar to'g'ri qayta ishlanmasa, zaharli kimyoviy modda sifati qolib ketadi.
Kimyo sanoati	Mineral o'g'itlar atrof-muhitda metan, karbonat angidrid kabi moddalar, shuningdek, ammiak va azot, ularning emissiyasi global isish va ob-havoning keskin o'zgarishiga olib keladi.
Tekstil sanoati	To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida katta miqdorda energiya talab qilinadi. Bu o'z navbatida ifloslanishni keltirib chiqaradi. Mahsulotlarni bo'yash, oqartirish yoki matolarga pardoz berish yuqori zaharli moddalardan foydalanishni oladi.
Tog'-kon sanoati	Suvning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, tuproq eroziyasi va ifloslanish.
Oziq-ovqat sanoati	Oziq-ovqat mahsulotlari global gazning to'rtidan bir qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Dunyodagi yashashga yaroqli yerlarning yarmidan ko'pi qishloq xo'jaligi uchun foydalaniladi.

Sanoat korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda ekologiyaga zarar yetkazmaydigan sanoat korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmi mavjud. Ushbu tizim barqaror rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va sanoat faoliyatining ekologik xavfsizligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati doirasidagi moliyaviy, soliq va kreditlash choralariining majmuasidir. Shuningdek, ushbu mexanizm korxonalarning ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish harakatlarini iqtisodiy jihatdan rag'batlantirishni ko'zda tutadi (2-jadval).


Shuningdek, monitoring stansiyalarini o'rnatgan yoki chang-gaz va suv tozalash inshootlariga sarmoya kiritgan korxonalar uchun ularning kompensatsiya to'lovlaridan shakllangan qarzдорlikdan qisman voz kechish va respublika budjetiga yo'naltirilgan to'lovlarining muayyan qismini qaytarish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ekologiyaga zarar yetkazmaydigan sanoat korxonalarini iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmi⁸

Soliq imtiyozlari	Foyda solig‘i va QQSni kamaytirish	Ekologik toza ishlab chiqarishni kengaytirish
Subsidiya va grantlar	Innovatsion texnologiyalarni joriy etishga moliyaviy yordam	Texnologik modernizatsiya
Kredit imtiyozlari	Yashil texnologiyalar uchun past foizli kreditlar	Sanoatda yashil o‘sishni rag‘batlantirish
Reyting va sertifikatlash	Ekologik reyting, yashil sertifikatlar	Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish
Kompensatsiya tizimi	Yer resurslari rekultivatsiyasi uchun to‘lovlarni qaytarish	Tabiiy resurslarni tiklash va saqlash

Ilgari surilgan ilmiy taklif sanoat korxonalarining ekologik jihatdan xavfsiz va barqaror faoliyat yuritishini rag‘batlantiruvchi moliyaviy-institutsional mexanizmni nazarda tutadi (2-rasm).



2-rasm. Kompensatsiya to‘lovlarini qaytarish tartibi⁹


Ushbu tartibning mavjud bo‘lishi atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringi stansiyalarini o‘rnatgan sanoat korxonalarining ekologik ishlab chiqarishga o‘tishidagi harakatlarini rag‘batlantirish maqsadida ularning tabiatga zarar yetkazish bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan shakllangan qarzdorlikdan voz kechish hamda respublika budjetiga yo‘naltiriladigan kompensatsiya to‘lovlarini qaytarish, chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini o‘rnatgan sanoat korxonalarining kompensatsiya to‘lovlarini qaytarish tartibini joriy etishga xizmat qiladi. Bu tartib, mavjud “ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipiga qo‘shimcha tarzda “kam ifloslantiruvchi rag‘batlantiriladi” tamoyilini iqtisodiy jihatdan mustahkamlaydi. Atmosfera havosini monitoring qilish stansiyalarini o‘rnatgan yoki chang-gaz va suv tozalash qurilmalarini joriy qilgan sanoat korxonalariga nisbatan differensial yondashuvni joriy etishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm davlat fiskal siyosatini ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish,

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sanoatni rag‘batlantirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishni maqsad qilgan yangi iqtisodiy yondashuv sifatida etirof etiladi.

Ta’kidlash joziki, sanoat korxonalarini rivojlantirishning ekologik oqibatlarini baholash va boshqarish uchun ko‘plab ilmiy metodologik usullar va mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ushbu mexanizmlar potentsial ekologik xavflarni aniqlashga va qaror qabul qiluvchilarni yanada samaraliroq qaror qabul qilishiga e’tibor qaratadi. Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholashda EIA (Environmental impact assessment), SEA (Strategic environmental assessment) hamda LCA (Life cycle assesment) eng keng tarqalgan usullardir (3-rasm).



3-rasm. Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholash usullari¹⁰

Ushbu usul va yondashuvlar bilan birga ekologik barqarorlikni ta’minlash, jumladan, sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish va baholashda jamoatchilik nazorati mexanizmidan ham foydalanilmoqda. Bunga sabab esa, texnik baholashning o’zi sanoat loyihalarining ijtimoiy, ekologik va madaniy jihatlarini to’liq qamrab olmasligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishining **“Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholashning zamonaviy tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholash mezonlarining ilmiy-uslubiy holati, sanoat korxonalari va atrof-muhit o’rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ekonometrik tahlili, sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholashning zamonaviy tendensiyalari ilmiy asoslangan.

Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta’sirini baholash keng ko‘lamli jarayon bo‘lib, u turli ilmiy asoslangan usul va vositalardan foydalanish imkonini beradi. EIA, SEA va LCA har bir usul o‘ziga xos kuchli tomonlarga ega. Ularni sanoat korxonlari faoliyatida qo‘llash atrof-muhitga ta’sirni kompleks va tizimli baholashda katta yordam beradi. Shu nuqtai-nazardan ushbu usullar sanoat korxonalari

¹⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


rivojlanishida ekologik barqarorlikni ta'minlashga katta imkoniyat yaratadi. EIA sanoat loyihalarining atrof-muhitga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini baholash uchun samarali hisoblanadi, ammo korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot va jarayonlarning barqarorligi nuqtai nazaridan tahlil imkoniyatlari cheklangan. LCA esa o'z navbatida atrof-muhitga barqarorlik nuqtai nazaridan EIA ni to'ldiradi. (3-jadval).

3-jadval

Sanoat korxonalarini atrof-muhitga ta'sirini baholashda foydalaniladigan usullarning qiyosiy tahlili¹¹

Me'zonlar	EIA	SEA	LCA
Baholash darajasi	Sanoat loyihalar tahlili	Atrof-muhit siyosati, rejasi, dasturi	Mahsulot yoki jarayonning hayot sikli
Amalga oshirish vaqti	Loyiha konsepsiyasidan so'ng	Loyiha rejalashtirishdan avval	Muntazam
Ko'lami	Maxsus, mahalliy	Strategik	Atrof-muhitga ta'sir
Qonuniy asosi	Majburiy	Integratsiyalashgan	Ixtiyoriy

Atrof-muhitga ta'sirini baholashning EIA iqtisodiy o'lchovi rivojlanish loyihalari ekologik jihatdan sog'lom, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan foydali bo'lishini ta'minlashda juda muhimdir. Iqtisodiy tahlilni EIA jarayoniga integratsiyalash orqali qaror qabul qiluvchilar atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni yanada chuqurroq tahlil qilib, asosli va barqaror qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'ladi. (4-rasm).




4-rasm. EIAning iqtisodiy o'lchovi¹²

“Strategik-ekologik baholash” tartibini joriy etish sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash tizimini takomillashtirishning ilmiy, huquqiy va institutsional asosidir. Bu yondashuv ekologik siyosatni iqtisodiy rejalashtirish bilan uyg'unlashtiradi, milliy rivojlanish strategiyalarini barqaror rivojlanish maqsadlariga yo'naltiradi va ekologik xavfsizlikni davlat boshqaruvi tizimining ajralmas elementi sifatida mustahkamlaydi. (5-rasm).

¹¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




5-rasm. Sanoat korxonalarida "strategik-ekologik baholash"ni amalga oshirish mexanizmi¹³

¹³ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash strategik rejalashtirish hujjatlari asosida amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyatining ehtimoliy ekologik oqibatlarini aniqlashga qaratilgan "strategik-ekologik baholash" tartibini joriy etish atrof-muhit sohasida kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning samarali va zamonaviy usullari jumladan, ESG mezonlarini sanoat korxonalariga qo'llash imkoniyatlarini yaratib beradi. Ushbu mexanizm ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish, ekologik xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga erishiladi.

GIS texnologiyalari asosida atrof-muhit holati monitoringi yo'lga qo'yiladi, bu esa nazoratni tizimli va aniq amalga oshirish imkonini beradi. Baholash natijalari milliy hamda xalqaro ekologik me'yorlarga muvofiqlikni ta'minlab, korxonaning ekologik boshqaruv tizimini mustahkamlaydi. Jamoatchilik ishtiroki va ochiqlikning ta'minlanishi esa ekologik qarorlar samaradorligini oshiradi hamda barqaror sanoat rivojlanishiga zamin yaratadi.

Sanoat sohasida ESG amaliyotlarini integratsiyalashuvi muhim masala hisoblanadi. Sanoat intensiv tabiati va global ta'minot zanjirlarining murakkabligi tufayli ESG mezonlarini amalga oshirishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni quyidagi komponentlarga mos keladigan uchta asosiy toifaga guruhlanadi. (6-rasm).




6-rasm. ESGning asosiy komponentlari¹⁴

Sanoat korxonalari rivojlanishini atrof-muhitga ta'sirini baholashda ekologik ta'sirni baholovchi yondashuv va metodologiyalarni qayta ko'rib chiqish lozim. Jumladan, sanoat korxonalarida sirkulyar iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish sanoat korxonalariga yangi, zamonaviy, sof texnologiyalarni olib kirish hamda atrof-muhitga chiqadigan chiqindilarning kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Sirkulyar iqtisodiyot doirasida ishlab chiqilgan "7R" tamoyillari – Rethink, Refuse, Reduce, Reuse, Repair, Regift, Recycle – sanoat jarayonlarida ekologik, ijtimoiy hamda iqtisodiy samaradorlikka ega va chiqindilarni kamaytirish va resurs aylanishini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston sharoitida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlariga sirkulyar iqtisodiyotning "tarmoqlararo foydalanishga yo'naltirish" va "ikkilamchi resurs sifatida tahlil qilish" tamoyillarini mahalliy resurslar va ishlab chiqarish sharoitiga moslashtirish asosida "atrof-muhitga ta'sirni baholash" (EIA = 0,5 – 0,75), "hayot siklini baholash" (LCA = 0,24 – 0,33) va "integratsiyalashgan baholash" (IAMs = 0,71 – 0,92) ko'rsatkichlarining miqdoriy chegaralarini asoslanganishi sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish tamoyilining amaliyotga keng joriy etilishiga xizmat qiladi. (7-rasm).

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



7-rasm. Sirkulyar iqtisodiyotni “7R” tamoyilini joriy qilish mexanizmi¹⁵

Tadqiqot doirasida, Farg‘ona vodiysida joylashgan 8 ta sanoat korxonlarining panel ma’lumotlaridan foydalanildi. Regressiya modeli orqali 8 ta korxonaning ekologik reytingga ta’sir etuvchi asosiy omillari tahlil qilindi. Model orqali ekologik reyting (Y)ni quyidagi omillar (X) asosida aniqlandi:

Y – EcoRating: Korxonaning umumiy ekologik reytingi (ball).

X1 – atmosfera: Atmosferaga chiqarilgan iflos moddalar miqdori;

X2 – suv: Sanoat faoliyatidan kelib chiqqan suv ifloslanishi;

X3 – chiqindi: Chiqindi miqdori;

X4 – mas’uliyat: Ekologik mas’uliyat darajasi (0–1 oraliqda, indeks).

Regressiya tenglamasi:

$$\text{EcoRating} = 98.56 - 0.22 * \text{atmosfera} - 0.13 * \text{suv} - 0.26 * \text{chiqindi} + 15.97 * \text{mas'uliyat} \quad (1)$$

4-jadval

Omillar tahlili¹⁶

Omillar	Koeffsient	P-qiymat	Izoh
X1 – atmosfera	-0.219	<0.001	Atmosferaga chiqarilgan iflos moddalar ekologik reytingni pastlatadi, ta’siri ahamiyatli.
X2 – suv	-0.131	0.075	Suv ifloslanishi ham reytingni kamaytiradi, ta’siri ahamiyatli.
X3 – chiqindi	-0.261	<0.001	Chiqindilar miqdori ko‘paygan sari reyting pasayadi, ta’siri juda kuchli va muhim.
X4 – mas’uliyat	+15.90	0.240	Ekologik mas’uliyat indeksi ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, lekin statistik jihatdan ahamiyatsiz.

Model ko‘rsatkichlari quyidagicha:

$R^2 = 0.839$ – model 83.9% aniqlik bilan ekologik reytingni tushuntiradi.

F-statistika = 33.86 ($p < 0.001$) – model statistik jihatidan ahamiyatli.


Model natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik reytingga eng kuchli salbiy ta’sir qiluvchi omillar, bu – chiqindilar va atmosfera ifloslanishidir. Ekologik mas’uliyat ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ammo uning statistik ahamiyati yetarli emas. Model ekologik

¹⁵ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

reytinglarni shakllantirish, monitoring qilish va korxonalarning barqarorlik strategiyalarini ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

Olingan natijalar sanoat korxonalarining ekologik reytingini oshirish uchun chiqindi miqdori va ifloslantiruvchi emissiyalarni kamaytirish, shuningdek, ekologik mas'uliyat madaniyatini kengaytirish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu model ekologik monitoring, sanoat siyosatini shakllantirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llanildi (8-rasm).



8-rasm. Korxonalarning ekologik reyting ko'rsatkichlari¹⁷

Ekologik reyting sanoat korxonalarining atrof-muhitga bo'lgan munosabati va ekologik barqarorlikka qanchalik e'tibor qaratayotganini ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. 8-rasm ma'lumotlariga ko'ra, tahlil qilingan yirik korxonalar orasida "UzAuto Motors" AJ va FNQIZ AJ korxonalari eng yuqori ekologik reytingga ega bo'lib, mos ravishda 61,27 va 60,29 ball bilan yetakchilik qilmoqda. Bu korxonalarda ifloslantiruvchi omillar nisbatan past bo'lishi va ekologik mas'uliyat yuqoriligi ularning reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Avtomobil sanoati (UzAuto Motors): eng yuqori ko'rsatkichga ega. Bu korxona ekologik menejment tizimlarini (masalan, ISO 14001) joriy qilganligi bilan izohlanadi. "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJ 51.46 ball bilan o'rtacha natijani qolga kiritgan. Bu sohada ifloslantiruvchi moddalarning yuqori riski bo'lganligi uchun nazorat va investitsiyalar muhim hisoblanadi. Shuningdek, "Farg'ona To'qimachi" AJ korxonasi reytingi nisbatan pastroq (54.98 ball), bu esa atmosferaga va suvga chiqarilayotgan iflos moddalar hamda chiqindilar miqdorining yuqoriligi bilan bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ekologik reytingga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar chiqindi miqdori, atmosfera ifloslanishi va ekologik mas'uliyat darajasi hisoblanadi. Yuqori reytingga ega bo'lgan korxonalar ushbu omillarni nazorat qilish va kamaytirishga katta e'tibor qaratgan, bu esa, barqaror rivojlanishga erishishning muhim sharti sifatida baholanadi.

2023-yilda sanoat chiqindilari hajmi 9,7 million tonnaga yetdi. Respublikada 1500 dan ortiq yirik sanoat korxonalari mavjud, shundan 40%i ekologik xavfli

¹⁷ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

